



O‘ZBEK MODERN SHE’RIYATIDA USLUB RANG-BARANGLIGI

Uralova Gulhayo Bahodir qizi

O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori institute tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek she’riyatining taniqli vakillari Rauf Parfi va Asqad Muxtor ijodi misolida modernistik uslubning namoyon bo‘lishi, poetik ifoda va estetik qarashlar yangilanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirlar she’riyatida modernistik unsurlar, badiiy tafakkurda yuzaga kelgan individual-estetik yondashuvlar ilmiy-nazariy asosda sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: ramziy til, lirik qahramon ruhiyati, vizual va intuitiv ko‘rish.

Annotation: This article analyzes the manifestation of modernist style, the renewal of poetic expression, and aesthetic perspectives in the works of prominent Uzbek poets Rauf Parfi and Asqad Muxtor. The study provides a theoretical and analytical examination of modernist elements and the emergence of individual-aesthetic approaches in their poetic thinking.

Key words: Symbolic language, psyche of the lyrical hero, visual and intuitive vision.

O‘zbek adabiyotidagi shakliy hamda mazmuniy izlanishlar bugungi yangilanayotgan Adabiyotimiz taraqqiyotidan darak beradi. Bu G‘arb adabiyotiga ko‘r-ko‘rona taqlid emas, balki o‘z yo‘liga ega bo‘layotgan, xoslar adabiyoti.

“Davr, —yozadi adabiyotshunos olim N. Rahimjonov “Davr va o‘zbek lirikasi” asarida, — falsafiy mavzular ichida eng abstrakt xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi.



Sababi, uning moddiylashgan konkret bir shakli yo‘q. Bu abstraktlikka faqat inson faoliyatigina konkretlik baxsh eta oladi”¹

Ko‘p asrlik badiiy an‘analarga, tarixiy silsilaga ega bo‘lgan o‘zbek adabiyotida modernizm yo‘nalishi tasodifan paydo bo‘lmagan. O‘zbek adabiyotida modernizmning ilk kurtaklari Cho‘lpon ijodida uchraydi. 20-30-yillarda o‘zbek adabiyotida ham muayyan modernistik izlanishlar bo‘lgan. Bu, jumladan, Oybek, Mirtemir, Cho‘lpon ijodlarida ko‘rinadi. Oybekning dastlabki she‘rlarida modernistik izlanish his-tuyg‘ularining tahliliga juda keng o‘rin berilganida ko‘rinadi. Mirtemir birinchi kitobida hayot zavqini tizginsiz pafos bilan ifodalashga intiladi. Afsuski, unda me‘yor buzilgani uchun pafos ko‘p o‘rinlarda oddiy balandparvozlikka aylanib ketadi. Cho‘lpon esa “Kecha va kunduz” romanida, ayniqsa, Zebi ustidan sud epizodlari tasvirlangan o‘rinlarda o‘sha voqealarning absurdligini juda yorqin ifodalagan. Ifodalaganda ham quruq so‘zlar bilan emas, qahramonlarning xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari bilan ifodalagan.²

Modern she‘riyatning gullash davri esa Rauf Parfi ijodiy davriga to‘g‘ri kelgan. Zamonaviy o‘zbek poeziyasini Yangi bosqichga ko‘tara olgan, o‘zbek modern adabiyotida alohida hodisa sifatida tan olinishiga asosiy sabab-uning o‘ziga xos lirikasi hamda lirik qahramonlarini ramziy tilda “gapirtira olgani” dir. Quyida uning ayrim bitiklari xususida to‘xtalamiz:

Tong otmoqda. Tong o‘qlar otar,

Tong otmoqda. Quyosh zambarak.

Yaralangan yer shari yotar,

Boshlarida yashil chambarak. (“Sakina” , 58-bet)³

¹ Rahimjonov N. Davr va o‘zbek lirikasi. –T.: Fan, 1979 – B. 18.

² Sharafiddinov O, Modernizm jo‘n hodisa emas. –T.: Yoshlik, 2002. – S.23-24.

³ Rauf Parfi. Sakina. –T.: Muharrir, 2013. – B. 58.



Rauf Parfi tabiat manzarasini shunchalar tiniq, tushunarli tasvirlaganki, kitobxon ichki nigohlari bilan she'ning jozibasiga maftun bo'lishi muqarrar.

Rauf Parfi XX asr o'zbek adabiyotiga yangi nafasni olib kirgan, o'zining ramziy obrazlari bilan kitobxonning botiniga singib qolgan mudroq hislarni uyg'ota olgan so'z san'atkori. Rauf Parfi ijodining asosini insonning ruhiy hurligi tashkil qiladi. Uning she'rdagi tasvir o'xshatishlari o'ziga xosligi bilan, ko'ngil manzarasining original chizgilari bilan ajralib turadi. Shu ma'noda uning:

Soat sindi, soatlar sindi,

Vaqtning iskanjasida

O'lib ketdi soatsoz bevaqt, ("Sakina", 237-bet)

misralarini eslash kifoya. Vaqtni tuzatishga hatto Soatsozning ham umri yetmasligini ohori to'kilmagan, yangi tashbeh bilan ifodalab bergan. Rauf Parfi obrazlar tizimini, uning xayoliy tabiatini, ichkin ruhiyatini, kayfiyatini anglash emas, his etish kerak:

O'tiribman jar yoqasida

Hech narsa yodimda yo'q.

Olgan nafasim ila yuzma-yuz

Hech kimni eslamayman ortiq

Sendan bo'lak.

Bo'g'zimga tiqilib tirnar

Kuyib ketgan yurakning hidi. ("Sakina", 184-bet)

Shoir lirik qahramonining hazin ohangga yo'g'rilgan tuyg'ulari bamisoli kuy bo'lib kitobxon ruhiyatiga oqib kiradi. Kuyib ketgan Yurakning hidi lirik qahramon bo'g'zini achishtirib tirnaydi. Chunki lirik qahramonning "Undan bo'lak" xotiroti yo'q.

Men o'z gavdamga boqib

Hayratga tushdim bu kun.



Bu gavda ichinda

Mozorlar ko‘p naqadar. (“Sakina”, 182-bet)

Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” romani bosh qahramoni Farida tilidan aytilgan shunday jumlar bor: “Ko‘nglim o‘zim sevgan insonlarning o‘liklari bilan to‘ldi”. Odamzot ming bora o‘ladi. Qalbining ich–ichida o‘lgan hislari, sevinchlari, qayg‘ularini yana o‘sha Qalbiga ko‘madi va har kecha mozorlarni ziyorat qiladi. Rauf Parfi badiiy uyg‘unlikning yangicha ko‘rinishini yuzaga keltira olgan isyon farzandi. U his-tuyg‘ular to‘lqinini, kechinmalar po‘rtanasini she‘rga sola olgan, uni noan‘anaviy yo‘sinda qalamga olgan Ijodkor.

Bir she‘rida “Yozilmagan she‘r erur dilim”, deydi shoir. Darhaqiqat, uning yozganlari kitobxonga jumboqli tuyulishi, ong-u shuuri qabul qila olmasligi mumkin. Shoir bitiklarini mag‘zini chaqish uchun Kitobxondan ma‘lum ma‘noda badiiy did, yuksak saviya talab qiladi. Ayniqsa, uning “Sakina” saylanmasidagi quyidagi uchliklarini o‘qigan kitobxon Rauf Parfi lirik qahramoni bilan nogahon suhbat quradi, uning kechinmalari kitobxonga bamisli ko‘zgu tutayotgandek taassurot uyg‘otadi.

Men sizni sevaman, Alloh kechirsin

Men sizni sevib o‘lganman.

Kechiringiz o‘lgan odamni

Yoki:

Men suvman-Hali hech kim ichmagan,

Kuygan Kitobman men

Hali hech kim o‘qimagan, - deydi u boshqa bir uchligida.

(“Sakina”, 236-bet)

Rauf Parfining qay bir satrini o‘qimaylik, undan shoirning chegara bilmas

tug‘yonlariga guvoh bo‘lamiz. Bir qarashda, uning ba‘zi she‘rlarida she‘riy ritmika – ohangni belgilaydigan hijo, turoq, bahr, qofiya kabi qat’iy talablar o‘z ahamiyatini



yo‘qotgandek:

Buncha ko‘p so‘zlaysan, Nega? Ne uchun?

Axir kerak emas. Axir behuda.

Axir kerak emas, shart emas axir

Tillaring yam–yashil yaproq singari

Daraxt emassan–ku, bas qil, gapirma. (“Sakina”, 176 -bet)⁴

Undagi jozibani, musiqiylikni kitobxon faqatgina ko‘ngil ko‘zlari orqali ko‘rishi, undan zavq olishi mumkin. Shoir she‘rlaridagi izchillik bilan yoritilgan, hissiy mazmundan vujudga keladigan ohang o‘quvchi ruhoniyyatiga to‘g‘ridan–to‘g‘ri ta‘sir o‘tkazadi. Rauf Parfi ijodida Turon–Turkiston mavzusi alohida sahifani tashkil

etadi. “Yurak” she‘rida “Men faqat Turkiston atalgan yorqin, bir butun yurtimni istayman, xolos” der ekan, o‘z Vatanida muhojirdek kun kechirayotgan Turkiylar qismatini yorug‘ satrlarida bag‘ri butun millat holida ko‘rmoqlikni orzulaydi. Uning har bir satrida “Hurriyat”, “Erk” so‘zlari manaman deya bo‘y cho‘zib turibdi. Rauf Parfi she‘riyati Erk, Ozodlik, Millat hurriyatini baland ovozda kuylay olgan, badiiyatning kamyob qirralari bilan nurlantira olgan She‘riyat. Undan har bir kitobxon o‘z estetik dunyosini titratib yuborishga qodir misralarni sevib mutolaa qiladi.

“Mantiqiy mushohadadan qochish, g‘alatilikka, so‘z ma‘nolari va shakliy o‘yinlarga atay intilish hozirgi she‘riyatimiz qiyofasini belgilaydigan omilga aylandi. Aqlga muvofiq xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan she‘rlar bugungi adabiyot uchun eskilik sanalib qoldi. Jahon adabiyotidagi turli badiiy tajribalardan yaxshi xabardor o‘quvchini bularsiz qoniqtirish mumkin bo‘lmay qoldi. Shu bilan birga ko‘pchilik shoirlar ham ijodiy yakranglikdan saqlanish yo‘lini qidirishga kirishdilar. Bunday izlanishlar adabiyotni rangin she‘rlar, betakror obrazlar va kutilmagan

⁴ Rauf Parfi. Sakina. – T.: Muharrir, 2013. – B. 176.



tashbihlar bilan boyitdi.

tushlarimni qabartirar oy

tushlarimning qadoqlari

yuragimga botmoqda (“Ayolg‘u”, 156-bet)

Bir o‘qishda, darhol anglab olinmaydigan, mantiqsizlikday tuyuladigan bu ifoda kishini she‘r matniga chuqurroq kirishga, shoir nazarda tutgan badiiy mantiqni

topishga undaydi. U o‘quvchidan izlanishni, she‘r paydo qilgan yuzaki ta‘sir bilan kifoyalanib qolmaslikni talab qiladi. Zotan, bunday she‘rlarda ilk hissiyot aldamchi, she‘r mantig‘ining libosigina bo‘ladi, xolos. Uni qayta-qayta o‘qigan, o‘qiganlarini teran mushohada qilgan kishi mantiqsizday ko‘ringan tasvirning go‘zal mantig‘ini topishi mumkin.”⁵

Yangi fikr majozini aytishga intilish, ijodkorning o‘z qobig‘iga o‘ralishi Asqad Muxtor ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning:

Inson–60 kilo,

Inson–70 kilo.

Biri yuzdan ortdi–Uch qat baqbaqa!

O‘zi mamnun, yuzlarida jilo,

Konserva bankaga tashladi chaqa.

...Mana ming so‘m!, - deyman,

Siz ruhimni torting.

O‘ylarimni torting, hissimni! (“El yurt kerak ekan odamga”, 159-bet) ⁶

Ijodkor lirik qahramoni ruhiyatini vizual emas, balki intuitiv tarzda “ko‘rish” imkonini beradi. Shoir mavjud she‘riy qoidalar ta‘sirida emas, balki o‘z shaxsiy qoidalari asosidagi mazmunni o‘quvchi ongiga singdirmoqchi bo‘ladi. O‘zbek modern she‘riyati

⁵ Muhayyo Yo‘ldosheva. Yangilanishlar manguiligi. – T.: Adib, 2011. – B. 46.

⁶ Asqad Muxtor. Эл-юрт керак экан одамга. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт- матбаа уйи, 2011.– В.159.



hayotsevarlik ruhi bilan to'yintirilgan, zavqqa qorishiq bo'lmagani va bosh qahramon ruhiyatida kechayotgan to'fon va tanazzulni konkret ifodalashi bilan ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahimjonov N. Davr va o'zbek lirikasi. –T.: Fan, 1979 – B. 18.
2. Sharafiddinov O, Modernizm jo'n hodisa emas. –T.: Yoshlik, 2002. – S.23-24
3. Rauf Parfi. Sakina. –T.: Muharrir, 2013. – B. 58- 176.
4. Muhayyo Yo'ldosheva. Yangilanishlar manguligi. – T.: Adib, 2011. – B. 46.
5. Асқад Мухтор. Эл-юрт керак экан одамга. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2011.– B.159.